Inkyuziv va uy ta’limi bo’yicha ma’lumot

Samarqand viloyatida 2026-2027-o‘quv yilida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi **“Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”**gi 638-son qaroriga asosan **447 ta** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida **1004 nafar** alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar **602 ta** inklyuziv sinflarda sog‘lom o‘quvchilar bilan bir sinfda ta’lim-tarbiya olishmoqda.

Kasallik turlariga ko‘ra **849 nafar** aqliy va ruhiy zaif o‘quvchilar**, 82 nafar** eshitishda nuqson bor zaif eshituvchi o‘quvchilar, **59 nafar** tayanch harakat a’zolari shikastlangan o‘quvchilar, **14 nafar** ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar inklyuziv sinflarda ta’lim tarbiya olishmoqda.

Shuningdek, **667 ta** umumta’lim maktablarida **1594 nafar** o‘quvchiga **3777 nafar** o‘qituvchi yakka (uyda) ta’lim-tarbiya berish uchun jalb etilgan.

Kasallik turlari bo‘yicha aqliy va ruhiy zaif o‘quvchilar **434 nafar,** ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar **1 nafar,** eshitishida nuqsoni bor o‘quvchilar **18 nafar**, nutqida nuqsoni bor o‘quvchilar **47 nafar,** tayanch harakatida nuqsoni bor o‘quvchilar **420 nafar** hamda boshqa turdagi kasallik bo‘yicha **674 nafar** o‘quvchilardan iborat.

Bugungi kunda viloyatda **35 ta** davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlar tashkil qilingan bo‘lib, shundan **21 ta** davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining **39 ta** guruhida **48 nafar** bolajonlar tarbiya olishmoqda.

2026 yil 18-iyul kuni Samarqand shahridagi “Do‘stlik uyi”da **Inklyuziv ta’lim: imkoniyat, sifat, qo‘llab-quvvatlash”** mavzusida o‘quv-amaliy seminar tashkil etildi.

Uchrashuvning asosiy natijasi sifatida davlat, jamiyat va ota-onalarning sa’y-harakatlarini birlashtirish orqali har bir bola sifatli ta’lim olish huquqini amalga oshira oladigan chinakam inklyuziv muhitni yaratish mumkinligi belgilandi.

Bundan tashqari, 5-8 avgust kunlari Samarqand lavlat texnika universitetida **“Inklyuziv ta’limni rivojlantirish: muammolar va innovasion yechimlar”** mavzusida Respublika seminari bo‘lib o‘tdi. Mazkur nufuzli tadbirda mamlakatimizning barcha hududlaridan **140 nafar** inklyuziv ta’lim mutaxassisi va **maxsus pedagoglar** ishtirok etishdi.

Ishtirokchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ular o‘rtasida do‘stona muhitni yanada mustahkamlash maqsadida sport va intellektual musobaqalari: **“Zakovat”** intellektual o‘yini, **Stol tennisi, shaxmat va shashka** o‘yinlari bo‘lib o‘tdi.

Tadbirlar davomida ishtirokchilar uchun Registon maydonida kechki sayr hamda maxsus lazer shousi namoyish etildi. Samarqandning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar tashkil etildi.

O‘quv-amaliy seminar dasturi doirasida inklyuziv ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarni belgilash, ilg‘or metodlarni ommalashtirish hamda

“Vazirlik rahbariyati va maxsus pedagoglar” uchrashuvi tashkil etildi.

Oktyabr oyining o‘n beshinchi sanasidan boshlab 3-bosqichli, alohida ta’limga ehtiyojli va sog‘lom bola ishtirokida (ikkalasi bir bo‘lib), **musiqa va san’at** hamda **rasmlar** bo‘yicha **“Sen iste’dodlisan”** ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tmoqda.

Viloyatda inklyuziv sinflar tashkil etilgan maktablarni jihozlash va to‘siqsiz muhitni yaratish maqsadida **239 ta** umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi **443 nafar** alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchilarning sifatli va teng ta’lim olishlari uchun inklyuziv sinflarni **jihozlash** va **to‘siqsiz muhit** yaratish uchun Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlari bilan tuman (shahar) hokimligi huzuridagi **“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik”** jamg‘armasi hamda tuman (shahar) mahalliy byudjetining **2026-yil II chorak daromadlar rejasi**ni orttirib bajarilgan qismi hisobidan **10 837 200,0 ming so‘m** ***(10,8 milliard so‘mdan ortiq)*** mablag‘ ajratildi.

Maktablarni maxsus korreksion jihozlar (logoped va o‘qituvchi stol-stullari, ko‘chma va interaktiv doskalar, ortopedik matraslar, FM ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, maxsus o‘yinchoqlar, stol lampasi, universal (xodinok) hassa, tibbiyot o‘yinchoqlari to‘plami, har xil o‘lchamli lupalar, ochiq polkali javon, kiyim-kechak javoni, akvarium, massaj to‘plari va boshqalar) bilan ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘quvchilarning erkin va xavfsiz harakatlanishlarini ta’minlash maqsadida maktablarda devor bo‘ylab tutqichlar, taktil qoplamali yo‘laklar va zamonaviy ichki hojatxonalar barpo etilmoqda.